

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Nutqda ko'p ma'noli so'zlar**

***Olimjonova Zarnigor.***

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'onan  
Mintaqaviy filialining Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabalari  
[najimiddinovasarvara@gmail.com](mailto:najimiddinovasarvara@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, nutqda, matnda va ijodiy namunalarda uchraydigan ko'p ma'noli so'zlarning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijod, nutq, ma'no, matn, namuna.

Bugungi kunda shoir, yozuvchi, aktyor, rejisyor so'zlarining badiyligi va o'z uslubiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tasviriy parcha, monolog, hikoyalar kabi ijodiy namunalarda uchraydigan so'zlarning ma'no-mohiyatini ijrochi nutqida tushunib va his etib ijro qilishi yoki mutolla etishi kerak.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri to'g'ri ma'no (asl, bosh yoki o'z ma'no), golganlari esa ko'chma ma'no boladi. Kochma ma'nolar nut tarkibida boshga so'lar bilan bog'langanda namo-yon bo'ladi, nuta tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosи asosiy ma'no bolib goladi. Masalan, tosh so'zi nuta qurshovidan ajratib olinsa, «qattiq jism» ma'nosini anglatadi.

**Qiyoslang.**

Tosh (qattiq jism) - asi ma'no Boshing toshdan bo'lsin - ko'chma ma'no

Kir (iflos) - asl ma'no

Kir (ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak) - ko'chma ma'no

Jonli majudot - asl ma'no

Jonli suhbat, jonli ijro - ko'chma ma'no

Gul ochilsin bog'larda, giz qo lida gul bo'lsin - asi ma'no Yashnamoqda gul turmush - ko'chma ma'no Sen uyning cho'risi bolma guli bol - ko'chma ma'no U

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

qo'li gul yigit ekan - ko'chma ma'no

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nuta ja-rayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

Ko'p ma'noli so'zlar, ma'nolarning tog'ri va kochma ma'nolarga bo'linishini yugorida ko'rib o'tdik.

Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nom-lari ma lum bir asosga ko'ra boshha narsa-hodisa, belgi-xususisi-yat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-ho-latlarining nomi sifatida xizmat giladi. Masalan, burun so'zi «tirik organizmning yuz gismidan bortib chiggan nafas olish organi» ma nosini ifodalash bilan birgalikda «yerning suvlikka tomon bortib chiqgan qismi» ma'nosini ham ifodalaydi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'shashlik (yuz qismdan bo'rtib chiqqan burun bilan yer girg'og'ining dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'shashlik) birining nomini ikkinchisi o'rida qo'llashga asos bo'lgan.

Ma'no kochishining nima asoda ro'yobga chigishiga kora metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud.<sup>1</sup>

**БИР ВА КӨП МА'NOLI СӨЗЛАР.** Bir ma'noli so'zlar – tilimizda faqat bir ma'noni ifodalaydigan so'zlar: pazanda, cho'pon, sa'va, chumchuq, zirak, tul, TO'TI...

Ko'p ma'noli so'zlar – tilimizda bir necha ma'noni ifodalab, o'z (bosh), ko'chma ma'nolarda ham ishlataladigan so'zlar. Bosh ma'no – so'zning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan ma'nosи. Ko'chma ma'no - so'zning nutq tarkibidagi boshqa so'zlar yordamida anglatgan ma'nosи. Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no ko'chishi quyidagi yo'llar bilan amalga oshadi:

a) metafora – o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi: derazaning ko'zi, o'choqning og'zi, piyolaning labi, hayotning zangi, xazon bo'lmoq, yengil kuy, gapni cho'zdi, ishni tindirdi, sovuq xabar...

<sup>1</sup> Muazzam Dedaxanova, A'zamjon Dadaxonov

Repetitor

O'ZBEK TILI FANIDAN MA'LUMOTNOMA

Toshkent

«Yangi kitob»-2016. 96-98-betlar

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

- b) metonimya – aloqadorlik asosida ma’no ko’chishi: fuzuliyni o’qimoq, zal oyoqqa turdi, Qo’yliq yig’ladi, sergeli jim, Kusto hayratda...
- c) sinekdoxa – butunni qism, qismni butun orqali ifodalash: qo’liga uzuk taqdi, tuz totmadi, oqsoqollar kengashdi, tirnoqqa zor, yong’oq ekdi...
- d) vazifadoshlik – shakli o’zgarib, vazifasi saqlanib qolgan so’zlar: o’q (kamon o’qi); o’q (miltiq o’qi)...
- e) kinoya – kesatish. Odatda qo’shtirnoqqa olib yoziladi: otasi o’g’lini “chiroyli” so’zlar bilan urushdi; qiz bolani “mensimay” tashlab ketti va ohir oqibatda “afsus” qildi.

Tasviriy ifoda – narsa-buyumning nomini aniq aytmay, uni tasvirlab aytish. Odatda ot so’z turkumi doirasida qo’llaniladi: mo’y qalam sohiblari (rassomlar), dala malikasi (makkajo’xori), oq oltin (paxta), qanotli do’stlar (qushlar)...

Eskirib qolgan so’zlar – o’z ichida ikkiga bo’linadi:

- a) tarixiy so’zlar – kundalik hayotimizda ishlatilmay, faqat nomi saqlanib qolgan so’zlar: paranji, omoch, mingboshi...
- b) arxaik so’zlar – kundalik hayotimizda mavjud narsalarning eskirib qolgan nomi: ulus (xalq), bitik (asar), dudoq (lab)...

Atama – ilm-fan, texnika, san’at, kasb-hunarga oid so’zlar. Atamalar ilmiy uslubda qo’llaniladi: inqilob, podshoh, feudal, proletar (tarix); ega, kesim, sifat (ona tili)...<sup>2</sup>

Quyida esa ko’p ma’noli so’zlar uchragan, Jabbor Razzoqovning “Qor yog’moqda” nomli tasviriy parchasini ko’rishimiz mumkin.

Sokin tun. Qor yog'yapti. Bolalarning beg'ubor qalbi to'lib-toshib oqayotgan daryoday jo'shqin. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlarda oppoq kapalaklarni ushlamoqchi bolganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qanday zavqli-a! Ona tabiat shunday go'zal-ki uning chiroyi hech ham tugamaydi.

Ana, qorning bir parchasi qizchaning oppoq hovuchiga ohista qo’ndi.

Quvonchdan uning yonoglari shunday yashnab ketdiki, bu daqiqalar tasviriga til ojiz. Qor shunday beg'ubor qizchaning qo’liga tushganidan, birdan erib

<sup>2</sup> (<https://ok.ru>)

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ketdi. Tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi. Bir zumdayoq hammayoq oq choyshabga burkandi. Haligina gor zarrachalarini ushlashga intilayotgan bolalar, endi undan hovuchlab-hovuchlab olib, dumaloqlab, qorbo'ron o'yashdi. Tun. Hamon qor yog' ardi.

Nafaqat nutqda, balki ijodiy namunalarda ham ko'p ma'noli so'zlarning o'rni beqiyos.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muazzam Dedaxanova, A'zamjon Dadaxonov. Repetitor.O'ZBEK TILI FANIDAN MA'LUMOTNOMA. Toshkent

«Yangi kitob»-2016.

2. XODJIMATOVA MAXSUMA KUCHKAROVNA

SAHNA NUTQI

TOSHKENT-2021

3. Ziyon.net

4. Wikipedia

5. O''zbek folklor ocherklari. B.Sarimsoqov muharriligida. - Toshkent:

Fan,

6. Aliyeva N. San'atdagi hayotim. - T.1978.

7. Qodirov M.X. Navoiy va sahna san'ati. - Toshkent: 8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.

9. K.S. Stanislavskiy. Aktyorning oz ustida ishlashi. T.Xo jayev tarjimasi. S.Muhamedov muharrirligida. - Toshken: Yangi asr avlodi, 2010.

10. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi XVIII asrdan XX asr avvaligacha. - Toshkent: Fan

11. Inomxojayev S. Notiqlik san'ati asoslari. - T.1982.